



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

LUG‘AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TAQLID SO‘ZLARING O‘RNI

Qayumova Ozoda Botir qizi,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda taqlid so‘zlardan foydalanishning o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va ularning xulosalariga tayanib ishlab chiqilgan lug‘at boyligini rivojlantirishda foydalaniladigan usullar hamda topshiriqlar keltirilgan. Tadqiqot natijasida o‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish, nutqini o‘stirish va uni bo‘yoqdorligini oshirishda taqlid so‘zlardan foydalanishning samarali ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, tasviriy so‘zlar, tasvir birliklari, mustaqil leksema, obrazli nutq, alohida turkum

РОЛЬ ЗВУКОПОДРАЖАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В РАЗВИТИИ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА

Каюмова Озода Батир кизи

преподаватель Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

Аннотация.

В данной статье рассматривается роль использования подражательных слов в процессе обогащения словарного запаса учащихся. Наряду с этим, в работе представлены методические подходы и практические задания, разработанные на основе анализа научных исследований, эмпирических экспериментов и их результатов. Исследование обосновывает эффективность применения подражательных слов в развитии речи обучающихся, а также в усилении её эмоционально-экспрессивной выразительности и стилистической окраски.

Ключевые слова: подражательные слова, изобразительные слова, изобразительные единицы, самостоятельная лексема, экспрессивная речь, отдельная категория

THE ROLE OF ONOMATOPOEIC WORDS IN VOCABULARY DEVELOPMENT

Qayumova Ozoda Botir qizi

Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract.

This article explores the significance of utilizing imitative words as a tool for enhancing the lexical repertoire of students. Furthermore, it presents pedagogical methods and instructional tasks developed based on the findings of scientific research and empirical experiments conducted in this field. The results of the study highlight the high efficiency of employing imitative units in advancing students' speech development and augmenting the expressive coloring and stylistic nuance of their verbal communication.

Keywords: imitative words, descriptive words, depictive units, independent lexeme, figurative speech, distinct category

Bolaning so‘z boyligini aniqlash jarayonida uning tafakkur doirasini, dunyoqarashini hisobga olish lozim bo‘ladi. O‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar hamda turli interaktiv metodlar ularning fikrlash doirasidan kelib chiqib tanlanishi kerak. Turli mantiqiy mashqlar orqali ularning so‘z boyligini aniqlash va rivojlantirish mumkin:

- 1) bir turdagi narsalarni sanab ko‘rsatish va ularni umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash;
- 2) narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish;

Tilni ravon bilishga erishish uchun ona tili darslarida so‘zlar ustida ishlash jarayonida lingvistik lug‘atlardan o‘rinli foydalanish zarur. Ya‘ni lug‘atlar yordamida nutqni rivojlantirish bo‘yicha

samarali ishlashni ta'minlovchi uslubiy shartlardan biri bu so'zning o'zini bilish, uni to'g'ri tushunish, nutqda turli ma'nolarda qo'llash, so'zning mazmunini ifodalay olishdir.

Til harakat va idrok bilan chambarchas bog'liq hamda ularga asoslangan jarayondir [1, 556]. Shu jihatdan taqlid so'zlar o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. A.Kononov [4] taqlid so'zlarni undovlarning bir ko'rinishi deb aytadi, lekin keyinchalik ularni alohida so'z turkumi qilib ajratadi. Ya'ni taqlid so'zlarni mustaqil so'z turkumi qilib ajratish kerak degan xuslosaga keladi. A.Is'hoqov esa taqlid so'zlarning leksik va grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib ularni alohida so'z turkumi qilib ajratish kerak degan fikrni ilgari suradi. A.G'ulomov ham taqlid so'zlarni undovlarni bir turi sifatida ko'rsatadi, lekin keyingi tadqiqotlari davomida taqlidlarni ayrim tur qilib ajratish lozimligini qayd qiladi. R.Qo'ng'urov [6, 58] taqlid so'zlarni "tasviriy so'zlar" deb ataydi. "Tasviriy so'zlar gapda ifodalangan mazmunga aniqlik, tasviriylik kiritish uchun ishlatiladi. Ularning boshqa vazifasi yo'q. Gapning mazmuniga boshqa bir o'zgartirish kiritmaydi. Shu sababli tasviriy so'zlarni tushirib qoldirsak, uning ma'nosida katta bir o'zgarish yuz bermaydi, faqat tasviriylik yo'qoladi, xolos", deb ta'kidlaydi. Lekin taqlid so'zlar:

a) o'zlarining leksik ma'nolariga ega;
b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tarila oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma jamoa, asosan, ularni bir xil tushunadi;
v) o'zlariga xos qurilishga, formaga ega;
g) sodda holda, asosan, yordamchi fe'llar bilan birga keladi;
d) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana bu xususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkinligini ham aytadi. Sh.Rahmatullayev [5] voqelikdagi turli tovushlarning, harakat-holat ko'rinishlarining til tovushlari vositasidagi ramziy ifodasiga tasvir birliklari turkumi deb qaraydi. Tavsir birliklari tovush tasviri birliklariga va harakat-holat ko'rinishi tasviri birliklariga ajratiladi: *o'xo'-o'xo', qu-qu, qitir-qitir; alang-jalang, hil-hil, milt-milt* kabi. Adabiyotlarda bunday birliklar ko'pincha *taqlid(iy) so'zlar* deb nomlanadi. Aslida taqlid – boshqa, tasvir – boshqa hodisa. Kishi biror hayvonning, masalan, mushukning tovushini taqlid qilib qaytarishi mumkin, lekin mushuk chiqaradigan tovushning o'zida taqlid qilish yo'q; kishi o'z tilidagi tovushlar vositasida mushuk chiqaradigan tovushning ramziy ifodasini hosil qiladi. Harakat-holat ko'rinishining ramziy tovush ifodasiga nisbatan esa taqlid izohi umuman to'g'ri kelmaydi. Demak, bunday birliklarni bir butun holda tasvir birliklari deb nomlash to'g'riroq degan fikrga keladi. R.Sayfullayeva va boshqalar taqlidlarni tovush yoki ko'rinishga taqlidni bildiruvchi mustaqil leksemalar ya'ni mustaqil lug'aviy ma'noli so'z sifatida beradi [3, 272]. Chunki ular morfologik jihatdan o'zgaruvchan, bu bilan to'la ma'nodagi mustaqil so'z hisoblanadi degan xulosani beradi. Taqlidning ayrimi tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish-holatga taqlidni ifodalaydi.

I. Tovushga taqlid so'z eshitish bilan bog'liq hodisani ifodalaydi: *tap-tup, taqir-tuqur, qah-qah, xur-xur, xir-xir, tipir-tipir, miyov-miyov*.

II. Korinishga taqlid so'zni ko'rinish bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi: *xil-xil, jiq-jiq, lip-lip, jimir-jimir, yaltyult, dik-dik, lik-lik, lapanglapang, yilt-yilt*.

H.Ne'matov va boshqalar o'quvchilar nutqini rivojlantirishda taqlid so'zlarning o'rni ahamiyatli ekanligini aytib, ularning lug'atini tovushga taqlid bildiradigan so'zlar bilan boyitish maqsadida berilgan so'zlarni inson tovushiga taqlid so'zlar, hayvon, qush, hasharotlar chiqaradigan tovushga taqlid so'zlar, tabiat hodisalari chiqargan tovushlarga taqlid so'zlarga ajratish va bu so'zlar guruhini mustaqil davom ettirish, tovushga taqlid so'zlarni to'liq takrorlangan va tovushlar takrori kabi guruhlariga ajratish, ular yordamida gaplar qurish, matn yaratish, taqlid so'zlarda ma'noning torayishi ularning qo'llanishi va imlosi ustida ishlashga oid amaliy ishlardan foydalanish mumkin [2, 63]. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda demak, taqlid so'zlar lug'at boyligini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) So'z yasallishi uchun asos ya'ni taqlid so'zlar boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi,

ammo ot (*sharshara, qarsak, qahqaha*), fe'l (*sharilla, qarsilla, shovulla, qiqirla*) va ravishning (*sharros, guppa*) yasalishiga asos bo'ladi. O'quvchining o'zi biladigan taqlid so'z o'zagidan yana boshqa so'zni yasashi orqali uning lug'at boyligi sezilarli darajada rivojlanadi;

2) Nutqni obrazli tasvirlaydi, bunda taqlid so'zlar orqali narsa-hodisalar shunchaki nomlanmaydi, balki o'quvchilar ularning jonli manzarasini yaratadi: Masalan, *qor yog'di* ↔ *qor gupillab yog'di*. Bu orqali o'quvchi voqeani tinglovchining ko'z oldida jonlantirishni o'rganadi.

3) Nutqning emotsional-ekspressivligi ortadi, bu o'quvchiga o'z fikrini turli vaziyatlarda tinglovchiga yaxshiroq ifodalash imkonini beradi: *g'izillab yetib keldim*.

Ona tili darslari davomida o'quvchilarga taqlid so'zlarga oid rasmlari va jadvalli topshiriqlar berish orqali ularning lug'at boyligini oshirish mumkin. Mana shu jihatlarni inobatga olib 7-sinf o'quvchilariga moslashtirilgan "Tovushini top" hamda "Kerakli so'zni tanla" usullaridan foydalandik. Bu usullar quyidagi ketma-ketlikda olib borildi:

- o'quvchilarga turli hayvon va narsalarning ovozlari yozilgan audio eshittiriladi;
- o'quvchi esa audio qaysi jon-zot yoki buyumga tegishli ekanini topadi;
- javoblari asosida bog'lanishli matn tuzadi;
- berilgan jadvaldagi so'zlarga mos holatga taqlid so'zlarni tanlaydi;
- ular ishtirokida gaplar tuzadi;

Birinchi usulda *asalari, momaqalldiroq, soat, chumchuq, qurbaqa, mashina, ot va jo'janing* ovozi eshittiriladi. Keyingi topshiriqda o'quvchilardan jadvaldagi rasmlarga mos holatga taqlid so'zlarni topish so'raldi.

1-jadval.

T/r	Rasm	Holatga taqlid so'zlar	Gap tuzish
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			

Birinchi topshiriq tinglab tushunishga oid bo'lib, o'quvchilar audioda nimalarning ovozi eshitganini topib, ularni qatnashtirib bog'lanishli matn tuzishlari kerak edi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu topshiriqda qatnashgan o'quvchilarning barchasi topshiriqni xatosiz bajargan. Faqat bog'lanishli matn yaratish jarayonida bir nechta imloviy xatoga yo'l qo'ygan. Ikkinchi topshiriq

rasmga mos holatga taqlid soʻzlarni topish jarayonida 5 nafar oʻquvchi 2 ta xato, 4 nafar oʻquvchi 1 xato, 5 nafar oʻquvchi 3 ta xato, 6 nafar oʻquvchi esa xatolikka yoʻl qoʻymagan. 5-8-raqamli oʻquvchi birinchi va beshinchi rasmga holatga emas tovushga taqlid soʻzlarni qoʻllashgan. Yaʼni yum-yum yigʻlamoq birikmasining oʻrniga hoʻngrab yigʻlamoqni, guppa-guppa qor birikmasining oʻrniga gʻirch-gʻirch qilib qorni bosmoq shaklida qoʻllashgan. Bunga sabab oʻquvchilarning ongida shu soʻzlarning faolligi saqlanib qolgan. 2-6-15-19-raqamli oʻquvchi gʻir-gʻir shamol birikmasining oʻrniga gʻuv-gʻuv shamolni ishlatgan. Topshiriqni bajarish davomida yoʻl qoʻyilgan ushbu eʼtiborsizlik holat taqlidlarini farqlash jarayonidagi shoshilinch harakatlar va diqqatning barqaror emasligi oqibatida yuzaga kelgan. Qolgan oʻquvchilarning xatosi birinchi, beshinchi va sakkizinchi rasmlar bilan bogʻliq ekanligi kuzatildi. Ushbu usullar orqali oʻquvchilar taqlid soʻzlar va ularga oid tushunchalarni oʻzlashtirib, passiv lugʻatidagi baʼzi soʻzlarni faol lugʻatga aylantirishdi.

Taqlid soʻzlarni oʻrgatish oʻquvchilar uchun qiziqarli tajriba boʻlishi mumkin. Aniq taʼriflar, interfaol oʻyinlar, kontekstli faoliyat kabi usullarni qoʻllash orqali oʻqituvchilar soʻz boyligini va lingvistik bilimni rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli oʻquv jarayonini yaratishi mumkin. Taqlid soʻzlar turli turkumdagi yangi leksemalarning shakllanishiga asos boʻladi. Bu oʻquvchining soʻz boyligini shunchaki yodlash orqali emas, balki soʻz yasashga oid bilimlarni anglash orqali intensiv ravishda oshirish imkonini beradi. Taqlidiy birliklar tildagi neytral leksikaga hissiy boʻyoq berish orqali nutqning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Oʻquvchi taqlid soʻzlar yordamida voqelikni shunchaki nomlamasdan uni tasviriy ifodalash bosqichiga oʻtadi, bu esa badiiy-tasviriy tafakkurning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Taqlid soʻzlarni tizimli oʻqitish oʻquvchi nutqining nafaqat miqdoriy koʻrsatkichlarini, balki uning sifat va kreativlik darajasini ham yangi bosqichga koʻtaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Glenberg A. M. Kaschak M. P. Grounding language in action. *Psychonomic Bulletin & Review*, 9(3), 558-565. 2002.
2. Neʼmatov H., Gʻulomov A., Ziyodova T. Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda oʻquvchilar soʻz boyligini oshirish (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun oquv qoʻllanma). – Toshkent: “Xalq merosi” nashryoti. 2002.
3. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: 2009. – 272 b.
4. А. Н. Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка, М. – Л., 1960.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: “Universitet” nashryoti. 2006.
6. Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar. – Toshkent: “Fan” nashryoti. 1966